

## **“ODAM VA XAYVONLAR FIZIOLOGIYASI” FANIDAN XORIJIY VA MAXALLIY DARSLIKLARINING QIYOSIY TAXLILI**

**F.Topilova, G.Kimsanova**  
**Andijon davlat universiteti**

**Annotatsiya:** Xorijiy adabiyotlarni va maxalliy adabiyotlarni taxlili o‘tkazish. Xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish hamda o‘quv jarayonida kullash, xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish.

**Kalit so‘zlari:** Darslik, o‘quv qo‘llanma, qiyosiy taxlili, strukturasi, Fiziologiya, savollar, mustaqil foydalanish, o‘quv, ilmiy, adabiyotlar, xalqaro

**Abstract:** Analysis of foreign literature and local literature. Translation and editing of foreign educational and scientific literature and use in the educational process, using the experiences of foreign countries.

**Keywords:** Textbook, study guide, comparative analysis, structure, Physiology, questions

independent use, educational, scientific, literature, international

**Аннотация:** Анализ зарубежной и отечественной литературы. Перевод и редактирование зарубежной учебной и научной литературы и использование в образовательном процессе, используя опыт зарубежных стран.

**Ключевые слова:** Учебник, учебное пособие, сравнительный анализ, структура, физиология, вопросы. для самостоятельного использования, образовательные, научные, литературные, международные

Xozirgi kunda ta’limda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son qarorida belgilangan vazifalarni bajarish, oliy ta’lim muassasalarini ilg‘or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darslik, o‘quv qo‘llanmalari hamda davriy nashrlar bilan tizimli ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorida oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash hamda darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini yangilab borish, xorijiy o‘quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish hamda ekspertizadan o‘tkazishni amalga oshirish maqsadida xorijiy va maxalliy adabiyotlardagi mavzularni qiyosiy taxlili o‘tkazildi. Taxlil etilganda “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” fanidan mavzularni xorijiy adabiyotlardan Linda S.Costanzo “Physiology” va maxalliy adabiyot O.T.Alyaviyaning “Fiziologiya” adabiyotidan foydalandi.

Linda S.Costanzo “Physiology” va Alyaviya O.T, Qodirov Sh.Q, Nishanova A.A larning “Fiziologiya” adabiyotlari mundarija qismi taxlil etilganda Linda S.Costanzo “Physiology” adabiyotida mundarijasida soddalashtirilgan berilmoqda, biroq xar bir bobning ichida mavzular mundarijasi mavjud bo‘lib mavzu yoritilgan betlari bilan ko‘rsatilgan. Maxalliy adabiyot O.T.Alyaviyaning “Fiziologiya” adabiyotda esa mundarija kengroq tarzda berilgan. Misol: Neyrofiziologiya uchinchi bob bo‘lib o‘z ichiga nerv tizimi strukturasi, neyron tuzilishi, sinapslar, MNTning umumiy fiziologiyasi, MNTning xususiy fiziologiyasi, sensor tizimi fiziologiyasi va oliy nerv faoliyati tizimi bitta bobga kiritilgan va Neyrofiziologiya deb ataladi. O.T.Alyaviyaning “Fiziologiya” adabiyotida esa ikkinchi bobida Markaziy nerv tizimining umumiy fiziologiyasi, uchinchi bobida Markaziy nerv tizimining xususiy

fiziologiyasi, o‘n uchinchi bobida Sensor tizim fiziologiyasi va o‘n to‘rtinchi bobida Oliy nerv faoliyati fiziologiyasi kabi kengroq tarzda berilgan.

Linda S.Costanzo “Physiology” adabiyotining so‘z boshi qismida adabiyot o‘quvchisiga nimalar bera olishi xaqida bayon etilgan. Matnning sodda, lo‘nda va jonli tushunarli tilda bayon etiganligi, matn aniq sarlavxalardan iboratligi, murakkab fiziologik jarayonlar tizimli, matniy va bosqichma-bosqich amalga oshirili, jarayon amalga oshirilganda muayyan ketma-ketlik, qadamlar matnda raqamlangan va ko‘pincha raqamlar bilan belgilangan va rasmda aks ettirilgan. Matn davomida ritorik savollar bilan o‘quvchilarga murojat qilishi, savollarga avval o‘ylab, keyin javob berish ta’kidlab o‘tilgan. Ushbu savollar, talabalar murakkab tushunchalarni va fiziologik jarayonlarni tushunishini va matniy fikrlashiga sabab bo‘ladi va mustaqil xulosalar chiqaradilar yoki paradoks xulosalar qiladilar. Matn bilan birgalikda jadvallar va illyustratsiyalar bilan xam boyitilgan xamda mustaqil foydalanish uchun mo‘ljallangan, jadvallarni taqqoslash va xulosalash lozimligi ta’kidlanadi. Matnga kiritilgan tenglamalar va misollar: barcha atamalar va o‘lchov birliklari, fiziologik jarayonlarda aks etadi va tushunishga yordam beradi. Ushbu kitobda murakkab bo‘lgan jarayonlar xam tushunarli va qadamma-qadam berilganligi ta’kidlanib o‘tilgan. Ushbu kitobning so‘z boshi qismida o‘quvchini adabiyotdan to‘g‘ri foydalanishi mumkin bo‘lgan yo‘l yo‘riqlar ko‘rsatilgan. O.T.Alyaviyaning “Fiziologiya” adabiyotining so‘z boshi qismida kitobxonga qisqa murojati bayon etilgan, Kirish qismida esa Fiziologiya faniga berilgan ta’rif bilan boshlanadi, fanning predmeti, maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlari, o‘rganish usullari, va qisqacha rivojlanish tarixi bayon etilgan Linda S.Costanzo “Physiology” adabiyoti illyustratsiyalarga boy illyustratsiyalar matn bilan birgalikda yaxlitlanib berilgan.

**Xulosa:** Maxaliy o‘quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish o‘quvchi va talabalar uchun juda xam qulay, biroq xorijiy adabiyotlardan xam foydalanish o‘quvchi va talabalar dunyoqarashini oshiradi. Xalqaro darajadagi adabiyotlardan va xalqaro tajribalardan foydalanish bizning o‘quvchi va talabalarimizni xalkaro darajadagi talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Linda S. Costanzo. Physiology. Elsevier.com.2018
2. Алявия О.Т., Қодиров Ш.Қ., Нишанова А.А. Физиология. “Navro‘z” нашриёти, 2019.-550